

**“TASDIQLAYMAN”
“Olmaliq KMK” AJ
boshqaruvi raisi
A.Xursanov**

2026-yil “28” yanvar

Madaniy merosni boshqarish siyosati va tartibi

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Siyosat va Tartib “Olmaliq KMK” AJ (keyingi o‘rinlarda – “Kombinat”) tomonidan madaniy meros obyektlarini tizimli aniqlash, himoya qilish va boshqarish tartiblarini belgilaydi.

Moddiy (masalan, arxeologik yodgorliklar, yodgorlik binolari) va nomoddiy (masalan, an‘anaviy marosimlar, xalq og‘zaki ijodi) meroslar ushbu hujjatning predmeti hisoblanadi.

Ishbu hujjatdagi talablar amaldagi faoliyat hududlarida madaniy meros obyektlari aniqlanmagan taqdirda ham amal qiladi.

1.2. “Olmaliq KMK” AJ O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligi, Copper Mark standartlari, Xalqaro moliya korporatsiyasi (IFC)ning 8-sonli Ijro Standarti (PS8) hamda Mas‘uliyatli Konchilik Tashabbusi (IRMA, 3.7-bob) talablariga muvofiq madaniy merosni himoya qilishni o‘z ichiga olgan mas‘uliyatli biznes yuritish tamoyillariga sodiqdir.

1.3. Siyosatning maqsadi madaniy merosga ta‘sir ko‘rsatish xavfini kamaytirish, milliy va xalqaro standartlarga rioya etish, hamda manfaatdor tomonlarni boshqaruv jarayoniga jalb etishdir. U kutilmagan topilmalarni qayd etish va boshqarish tartiblarini ham o‘z ichiga oladi.

1.4. Ushbu Siyosat va Tartibning talablari Kombinatning barcha tarkibiy bo‘linmalari hamda u bilan ishlovchi pudratchilar uchun majburiydir.

2. Qo‘llanish sohasi

2.1. Ushbu Siyosat va Tartib Kombinatning O‘zbekistondagi barcha faoliyat turlariga, jumladan, qidiruv, qazib olish va tegishli ishlariga tatbiq etiladi.

2.2. Hujjat madaniy meros obyektlarini aniqlash, himoya qilish va boshqarish jarayonlarini qamrab oladi, shuningdek, kutilmagan topilmalar yuz berganda amal qilinadigan tartiblarni belgilaydi.

3. Atama va tushunchalar

3.1. Madaniy meros – moddiy obyektlar (masalan, arxeologik yodgorliklar, tarixiy binolar) va nomoddiy atributlar (masalan, an‘analar, marosimlar) bo‘lib, ular madaniy, ilmiy, ma‘naviy yoki diniy ahamiyatga ega.

3.2. Yuqori ahamiyatga ega madaniy meros – xalqaro ahamiyatga ega yoki bebaho hisoblangan obyektlar (IFC PS8 talqinida).

3.3. Kutilmagan topilma – ish faoliyati davomida moddiy (keramika, suyaklar, inshootlar) yoki nomoddiy (mahalliy jamoa tomonidan muqaddas deb topilgan joylar) madaniy meros obyektlarini aniqlash.

3.4. Salbiy ta‘sirni yumshatish iyerarxiyasi – ta‘sirni boshqarish yondashuvi bo‘lib, u oldini olish, minimallashtirish, tiklash va kompensatsiyani o‘z ichiga oladi.

3.5. Madaniy meros uchun mas‘ul shaxs – arxeologiya, antropologiya yoki madaniy resurslarni boshqarish sohasida tajribaga ega xodim yoki jamoa.

3.6. Manfaatdor tomonlar – mahalliy jamoatchilik, O‘zbekiston Madaniy meros agentligi, tarixchilar, Nodavlat notijorat tashkilotlar va Kombinat faoliyatidan ta‘sir ko‘ruvchi boshqa subyektlar.

4. Boshqaruv organlari va mas‘ul tomonlar

4.1. Kombinat Boshqaruvi:

- Ushbu Siyosat va Tartibning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlaydi.
- Amalga oshirilishini nazorat qiladi hamda asosiy masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qiladi.

4.2. Faoliyatda ishtirok etuvchi barcha bo‘linmalar:

- Siyosat va Tartibga rioya etilishini , jumladan kutilmagan topilmalar bo‘yicha kerakli tadbirlarni qo‘llashni ta‘minlaydi.
- Xodimlar va pudratchilarni ushbu siyosat bilan tanishtiradi.
- Madaniy meros topilmalari haqida mas‘ul shaxsga darhol xabar beradi.

4.3. Madaniy meros bo‘yicha mas‘ul shaxs:

- Madaniy merosni aniqlash, baholash va boshqarishni muvofiqlashtiradi.
- Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni tashkil etadi.
- Monitoring olib boradi va boshqaruv choralari bo‘yicha hisobotlar tayyorlaydi.
- Milliy qonunlar va xalqaro standartlarga rioya etilishini ta‘minlaydi.

4.4. Obyekt rahbarlari:

- Topilma aniqlanganda ishlarni darhol to‘xtatadi.
- Mas‘ul shaxsga darhol xabar beradi.

4.5. Xodimlar va pudratchilar:

- Potensial topilmalarni aniqlaydi va xabar qiladi.
- O‘quv mashg‘ulotlarida o‘rgatilgan tartiblarga amal qiladi.

5. Kombinat majburiyatlari

5.1. Aniqlash va himoya qilish: Kombinat faoliyati hududida moddiy va nomoddiy madaniy merosni faol ravishda aniqlash va himoya qilish.

5.2. Qonunchilikka rioya etish: O‘zbekiston Respublikasining quyidagi qonunlariga rioya etish:

- O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 61-moddasi (2023-yil 1-may tahriri);
- O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustdagi “Madaniy meros obyektlarini saqlash va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi 269-II-son Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 2009-yil 17-sentabrdagi “Arxeologik meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘RQ-229-son Qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining 1998-yil 29-avgustdagi “Madaniy boyliklarning olib chiqilishi va olib kirilishi to‘g‘risida”gi 678-I-son Qonuni;
- Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4 oktabrdagi “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 846-son qarori.

5.3. Xalqaro standartlarga rioya etish: UNESCO konvensiyalari (1972-yilgi Butunjahon merosi to‘g‘risida Konvensiya), IFC PS8 va IRMA 3.7-bobi.

5.4. Manfaatdor tomonlarni jalb etish: Mahalliy jamoatchilik, madaniyat organlari vakillari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan uchrashuv va muhokamalar, zarur hollarda mahalliy xalqlarni oldindan xabardor qilgan holda roziligini olish (FPIC- Free, prior and informed consent).

5.5. Salbiy ta'sirni yumshatish iyerarxiyasi: oldini olish, minimallashtirish, tiklash va kompensatsiya choralarini qo'llash.

5.6. Kutilmagan topilmalar tartibi: milliy qonunlarga muvofiq tartiblarni joriy qilish.

5.7. Ta'lim va xabardorlik: xodimlar va pudratchilar uchun potensial topilmalarni aniqlash va xabar berish bo'yicha treninglar.

5.8. Shaffoflik va hisobot taqdimi: GRI (Global Reporting Initiative) talablariga muvofiq yillik barqaror rivojlanish hisobotida madaniy meros boshqaruvi natijalarini e'lon qilish, mustaqil auditlar o'tkazish.

6. Madaniy merosni boshqarish jarayoni

Bosqich 1. Ishlarni darhol to'xtatish: topilma aniqlansa, ishlar zudlik bilan to'xtatiladi, uchastka rahbariga xabar qilinadi.

Bosqich 2. Xabar berish: uchastka rahbari mas'ul shaxsga darhol topilmaning joyi, tavsifi, foto, sana va vaqt ma'lumotlarini taqdim etadi. Mas'ul shaxs O'zbekiston Respublikasining 2009-yil 17-sentabrdagi O'RQ-229-son qonuniga asoslangan holda 48 soat ichida Madaniy meros agentligini xabardor qiladi.

Bosqich 3. Uchastkani himoyalash: 50 metrli xavfsizlik perimetri o'rnatiladi, ruxsat olinmaguncha ishlar qayta boshlanmaydi.

Bosqich 4. Topilmani baholash: 7 kun ichida malakali mutaxassis jalb qilinadi, topilmaning turi, ahamiyati va ta'sir darajasi aniqlanadi.

Bosqich 5. Manfaatdor tomonlar bilan suhbat: Agar topilma muhim bo'lsa, mahalliy jamoatchilik, agentlik va boshqa tomonlar bilan FPIC talablariga muvofiq uchrashuv va muhokamalar o'tkaziladi.

Bosqich 6. Salbiy ta'sirni yumshatish:

- baholash natijasi, uchrashuv va muhokamalarga asosan choralar ishlab chiqiladi: yo'nalishni o'zgartirish, salbiy ta'sirni kamaytirish, obyekttni tiklash, madaniy loyihalarni moliyalash.

Bosqich 7. Tatbiq etish va monitoring: choralar darhol amalga oshiriladi, oylik monitoring o'tkaziladi.

Bosqich 8. Hujjatlashtirish va hisobot taqdimi: Baholash natijalari, maslahatlashuv yozuvlari, chora-tadbirlar va monitoring natijalari hisobotga kiritiladi, agentlikka yuboriladi va yillik hisobotga qo'shiladi.

Bosqich 9. Shikoyatlarni ko'rib chiqish: Shikoyatlar 30 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Bosqich 10. Trening: topilma yuzasidan treninglar yangilanadi va tegishli tashkilotlar ishtirokida treninglar o'tkaziladi.

7. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

Anonimlik va o'zbek tilida murojaat qilish imkoniyati.
Shikoyatlar 30 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Aloqa kanallari: sayt, elektron pochta, telefon.

- Sayt: <https://agmk.uz/ru/virtual>
- Elektron pochta: info@agmk.uz
- Telefon raqami: +99870 619-23-33; +99870 619-51-16

8. Asboblari va resurslar

Topilma haqidagi hisobot shakli (1-ilova).

Yumshatish choralari rejasi (2-ilova).

Monitoring jurnallari va fotolar.

Ochiq manbalar: Madaniy meros agentligi va UNESCO reyestrlari.

9. Monitoring va hisobot taqdimi

Siyosat va Tartib har yili yoki topilma bo'lganda qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Natijalar Kombinat saytida e'lon qilinadi.

Hujjatlar 5 yil saqlanadi.

10. Rioya etish va sanksiyalar

Siyosatga amal qilmaslik xodimlar uchun intizomiy choralar, pudratchilar uchun sanksiyalar qo'llanilishiga olib keladi.

Topilmalar bo'yicha ma'lumotlar tekshiriladi va davlat organlari bilan hamkorlik qilinadi.

11. Yakuniy qoidalar

Ushbu hujjat tasdiqlangan kundan kuchga kiradi va har yili qayta ko'rib chiqiladi.

Barcha bo'linmalar va pudratchilar Copper Mark, IFC PS8 va IRMA standartlariga muvofiqlikni ta'minlashlari shart.

Hujjat bilan imzo qo'yish orqali tanishib chiqish talab etiladi.

Kutilmagan topilma to‘g‘risida hisobot

- Topilma aniqlangan sana: _____
- Topilma joyi: _____ (GPS koordinatalari bo‘lsa ko‘rsatiladi)
- Topilmaning tavsifi: _____ (turi, hajmi, holati)
- Suratlar: ☐ Ilova qilingan ☐ Ilova qilinmagan
- Madaniy meros bo‘yicha mas‘ul xodimga xabar berish:
☐ Amalga oshirilgan ☐ Amalga oshirilmagan
- Madaniy meros agentligiga xabar berish: ☐ Amalga oshirilgan ☐ Amalga oshirilmagan

Mas‘ul xodim: _____
(F.I.Sh., lavozimi)

Imzo: _____

Sana: _____

“Olmaliq KMK” AJning
Madaniy merosni boshqarish
siyosati va tartibiga
2-ilova

Oqibatlarni yumshatish choralarining rejasi

T/r	Topilma tavsifi	Chora tadbir (Oldini olish / Minimallashtirish / Tiklash / Kompensatsiya)	Amalga oshirish muddati	Mas‘ul shaxs	Holati
1					
2					
3					
...					

Mas‘ul shaxsning imzosi: _____

Lavozimi: “Olmaliq KMK” AJning Madaniy meros bo‘yicha mas‘ul

Sana: _____